

MIRZO ULUG‘BEK HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Suvonov Shohruhjon

Botir Zokirov nomidagi Milliy
estrada san‘at instituti talabasi

Xaitova Surayyo Esanovna

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bek hayoti, yashagan yillari, hukmdorlik davri, ilmiy-adabiy hamda madaniy merosi, me‘morchilik ishlari, to‘g‘risida so‘z boradi. Bundan tashqari asarlari, astronomiya faniga qo‘shgan hissasi hamda uning nomini abadiylashtirish yo‘lida olib borilgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumotlar keltiriladi. Maqoladan o‘zbek va jahon olimlarining Mirzo Uug‘bek haqidagi fikrlari o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, Temuriylar, Shohrux Mirzo, astronomiya, rasadxona, Movarounnahr, Samarqand, madrasa, olim, alloma, ilm-fan.

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни Мирзо Улугбека, годы царствования, научно-литературном наследии, архитектурных произведениях. Кроме того, приведены сведения о его работах, вкладе в астрономическую науку и проделанной работе по увековечиванию его имени. В статье изложены мнения мировых и узбекских ученых о Мирзо Улугбеке.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, Тимуриды, Шахрух Мирза, астрономия, обсерватория, Моваруннахр, Самарканд, медресе, ученый, наука.

Annotation: This article talks about Mirzo Ulugbek’s life, years of his life, reign, scientific-literary and cultural heritage, architectural works. In addition, information is provided about his works, his contribution to the science of astronomy, and the work carried out to perpetuate his name. The article contains the opinions of Uzbek and world scientists about Mirza Ulugbek.

Key words: Mirzo Ulugbek, Timurids, Shakhrukh Mirza, astronomy, observatory, Movarounnahr, Samarkand, madrasa, scholar, science.

Temuriylar davlatining hukmdori, davlat arbobi, buyuk astronom va matematik Mirzo Ulug‘bekning to‘liq ismi Muhammad Tarag‘ay ibn Shohrux ibn Temur Ulug‘bek Ko‘ragondir. U 1394-yil 22-martda bobosi Amir Temurning besh yillik urushlari davrida Sultoniya shahrida tug‘ilgan. Otasi Shohrux Mirzo, onasi Gavharshodbegim bo‘lgan. Unga Mirzo Muhammad Tarag‘ay ismi berilgan. Ulug‘bek asli ismi emas, balki “Buyuk hukmdor” ma‘nosini beruvchi taxallus hisoblanadi. Ko‘ragon unvoni mo‘g‘ulcha “kuregen” so‘zining forscha varianti bo‘lib, “xonning kuyovi” degan ma‘noni bildiradi. Ulug‘bekning ustozlari shoir va olim Orif Ozariy bo‘lgan.

Bolaligida u Yaqin Sharq va Hindistonning katta qismini kezib chiqqan, chunki bobosi bu hududlarda urushlar olib borgan. Hindiston yurishi davrida bobosi Amir Temurni Kobulgacha kuzatib borganligi haqida ma‘lumotlar bor. Amir Temur 1404-yilda Xitoyga qarshi yurishi oldidan Sayram, Avliyoota va sharqiy hududlarni boshqarish huquqini nabirasi Ulug‘bekka bergan. Temur vafotidan keyin otasi Shohruxning imperiyasi ikkiga bo‘linib ketadi. O‘zi Hirotga ketadi, o‘g‘lini Samarqandga hokim qilib tayinlaydi. 1411-yilda u butun Movarounnahr hokimi deb e‘lon qilinadi.

Uning hukmdorlik davriga nazar tashlaydigan bo'lsak, qiyinchiliklarga boy va mas'uliyatli bo'lganini bilib olamiz. 1447-yil otasining vafot etganligi sababli Balxga jo'naydi va u yerda o'zining marhum akasi Boysung'urning o'g'li Alouddavlaning Hirotda Temuriylar saltanati hukmronligi da'vo qilganini eshitib unga qarshi yurish qiladi. So'ngra Balxga chekinadi va u yerda o'g'li Abdullatif isyon ko'targanini biladi. O'g'li unga qarshi isyon ko'taradi, Mirzo Ulug'bek chekinishga majbur bo'ladi. Abdullatif otasini hibsdan ozod qilib, Makkaga haj qilishiga ruxsat beradi. Biroq manziliga yetib bormasdan turib otasi va ukasi Abdulazizni 1449-yilda qatl qildiradi. Shu sababli Abdullatif padarkush bo'lib tarixda qolgan. Ushbu ma'lumotlar Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" asarida to'la o'z ifodasini topgan.

Bular qisqacha Mirzo Ulug'bek hayot yo'llari haqida ma'lumotlar bo'lib, endi maqolada uning davlat uchun amalga oshirgan islohotlari, ilm-fanga qo'shgan hissasini yoritib o'tiladi.

Mirzo Ulug'bek 40 yil davlatni boshqargan hamda shu davr ichida davlatni har tomonlama mustahkamlash uchun harakat qilgan, ilm-fanni rivojlantirish o'z hissasini qo'shgan. Samarqandda rasadxona barpo qiladi, lekin bu ko'plab din mutaassiblarining noroziligiga sabab bo'ladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan u rasadxonada olimlar bilan birgalikda ishlar olib borishda davom etadi.

Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand gullab yashnadi. Uning farmoyishi bilan 1417-yilda Buxoroda, 1420-yilda Samarqandda va 1433-yilda G'ijduvonda madrasalar barpo etildi. Buxorodagi madrasa tepasiga: "Ilm olish har bir o'g'il va qiz uchun farzdir" deb yozib qo'yilgan. Marv shahrida xayriya muassasalari qurildi. Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli qurilishlari nihoyasiga yetkazildi. Shuningdek, Ulug'bek karvonsaroy, tim, chorsu, hammom kabi jamoat binolari ham barpo ettirgan. 1417-1420-yillarda Samarqandda Registon maydonida madrasaga ko'plab islom astronomlari va matematiklarini o'qishga taklif qiladi. Ulug'bekning astronomiya bo'yicha eng mashhur shogirdi Ali Qushchi bo'lgan. Qozizoda Rumiylar Ulug'bek madrasasining eng ko'zga ko'ringan muallimi bo'lgan. Jamshid al-Koshiy ham shu madrasada xizmat qilgan.

Ulug'bek ilm-fan olamida buyuk astronom sifatida mashhur. Bu borada u amalga oshirgan buyuk ish "Ziji jadidi Ko'ragoniy" deb nomlangan astronomik jadval hisoblanadi. Mazkur jadval o'zbek astronomi G'. Jalolov tomonidan yaxshi o'rganilgan. Mirzo Ulug'bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan, she'rlar ham yozgan. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida uning she'rlaridan namunalar keltirilgan. Olimdan bizga 4 ta asar meros qolgan:

- 1) "Ziji jadidi Ko'ragoniy" – astronomiyaga oid;
- 2) "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola" – matematikaga oid;
- 3) "Risolayi Ulug'bek" – yulduzlarga bag'ishlangan;
- 4) "Tarixi arba ulus" ("To'rt ulus tarixi") – tarixga oid.

Mirzo Ulug'bek 1437-yilda 1018 ta yulduz to'plamini "Ziji sultoniy" asarida tartib bilan bergan, yulduz turkumlari bo'yicha Beruniyning yulduzlar katalogidagi kabi joylashtirilgan hamda u hozirgi paytda ham yulduzlar ilmi sohasida buyuk asar hisoblanadi. Ushbu asar 1665-yilda Oxfordda Thomas Hyde tomonidan, 1843-yilda Fransiya Bailly tomonidan va 1917-yilda Edward Ball Knobel tomonidan yangidan tahrirlanib bosilgan.

Mirzo Ulug'bek bir yilni 365 kun 5 soat 49 daqiqa va 15 soniya deb belgilagan. U ushbu hisobida faqatgina 25 soniya xato qilgan ekan. U matematika ilmiga o'z hissasini qo'shgan. Mirzo Ulug'bek davrida ko'pgina asarlar arab va fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan. U tashkil qilgan boy kutubxonada 15000 dan ortiq kitob bo'lgan.

Mirzo Ulug'bek astronomiya maktabi vakillarining tadqiqotlari natijasi bo'lgan buyuk meros "Ziji jadidi Ko'ragoniy" dan keyingi yuz yillar mobaynida faqat Sharq emas, balki G'arb

mamlakatlari ko'pgina yirik rasadxonalarning olimlari dasrurul-amal sifatida keng foydalangan. Dunyo astronomiya fani taraqqiyotida o'rta asr Sharq astronomiyasi, jumladan, Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati alohida o'rin tutadi. Bu davrda quyosh, oy va sayyoralarning harakat nazariyasi, amaliy astronomiyaning vaqt va joyning geografik koordinatalarini aniqlashga doir masalalari bo'yicha O'rta Osiyo, xususan, o'zbek allomalari juda boy meros qoldirdilar. Ular ichida Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Mirzo Ulug'bek kabi mashhur siymolar o'z ijodlari, ilmiy meroslari bilan mashhur. Salkam yetti asr davom etgan Sharq astronomiyasining jo'shqin faoliyati Ulug'bek va uning akademiyasining boy ilmiy merosi bilan yakunlandi. Ulug'bek rasadxonasi 15-asr me'morchiligining nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Bu inshoot 1428-1429-yillarda Samarqandda Ko'hak tepaligida bunyod etilgan. Lekin rasadxona qurilgan vaqti haqida aniq ma'lumot topilgani yo'q. Arxeolog V.Shishkin rasadxona qoldiqlarini qazish paytida uning janub tomonidan topilgan 3 ta tanga haqida gapirib, ulardan ikkitasining chetida 823-hijriy yil (milodiy 1420-yil) degan yozuv bo'lganini ma'lum qiladi. Mirxond "Ravzat us-safo" asarida yozilishicha, rasadxona binosi jadal sur'atlar bilan qurilgani inobatga olinsa, u 1420 yoki 1421-yili bunyod bo'lgani ayon bo'ladi. Rasadxona 3 qavatdan iborat bo'lib, birinchi qavatda xodimlar yashagan, barcha kuzatuvlarni olib borish ikkinchi va uchinchi qavatlarda amalga oshirilgan. Rasadxona ichki devorlarida koinot va yer kurrasi tasvirlari tushirilgan. Shuning uchun ham bu joy mahalliy xalq tilida "Naqshi jahon" deb nom olgan. Rasadxona o'ziga xos turdagi bino bo'lib, uning qurilishida asosiy rol me'morga emas, balki binoga o'rnatilgan asboblarning joylashuvi va hajmini aniqlagan olimlarga, ya'ni Ulug'bek va Qozizoda Rumiya tegishli bo'lgan. Rasadxonaga 60 dan ortiq matematik va astronom taklif qilingan.

Sovetlar hukmronligi davrida 1449-yilda Ulug'bek o'ldirilganidan so'ng rasadxona faoliyati to'xtab, bino diniy aqidaparastlar tomonidan vayron qilingani haqida xato ma'lumotlar berilgan. Ulug'bekdan so'ng rasadxona uning shogirdi Ali Qushchi rahbarligida yigirma yil faoliyat yuritgan. Vyatkinning fikricha, rasadxonaning vayron bo'lishiga tabiiy hodisalar sabab bo'lmagan. 16-asr oxirida Samarqand aholisi g'ishtlarini ko'chirib olganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Ulug'bek rasadxonasida tuzilgan astronomik jadvallar sharqda munosib shuhrat qozongan va uzoq vaqt tengsizligicha qolgan. Yevropada ushbu jadvallar haqida ma'lumotlar birinchi marta 1650-yilda nashr etilgan.

O'zbekiston hukumati rasadxona qoldiqlarini o'rganish va saqlab qolishga e'tibor qaratdi. 1949-yili rasadxona o'rniga marmar toshdan yodgorlik o'rnatildi. Muzeyda Ulug'bek rasadxonasida qo'llangan bo'lishi mumkin bo'lgan asboblari va Ulug'bekkacha bo'lgan astronomiya tarixining tasviri namoyish etilgan. Bu 1970-yilda qurilgan bino bo'lib, asl rasadxona binosiga o'xshatib yaratilgan. Muzeyda Ulug'bekning yulduz jadvallarining asl fors tilidan arab, lotin. Fransuz va ingliz tillariga tarjima qilingan nusxalarini ko'rish mumkin.

Xususan: O'zSSR Fanlar akademiyasi akademigi Qori Niyoziy 1950-yilda "Ulug'bek astronomik maktabi" monografiyasini yozadi.

Akademik I.M.Mo'minov tashabbusi bilan 1969-yil aprel oyida Toshkentda Mirzo Ulug'bek tavalludining 575 yilligiga bag'ishlangan ilmiy anjuman bo'lib o'tadi.

1970-yilda Samarqandda ilk bor Ulug'bek haykali o'rnatildi.

1966-yilda O'zbekistonda "Ulug'bek yulduzi" nomli film suratga olindi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov farmoni bilan 1994-yil Mirzo Ulug'bek yili deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Milliy universitetiga Mirzo Ulug'bek nomi berilgan.

Farg‘ona davlat pedagogika instituti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutiga Mirzo Ulug‘bek nomi berilgan.

Toshkent shahridagi tuman va metropolitan bekatlaridan biri ham Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi.

Toshkent va Samarqandda haykallari qad ko‘targan. Riga shahridagi Kronvalda bog‘ida, O‘zbekiston elchixonasidan uncha uzoq bo‘lmagan joyda Mirzo Ulug‘bek haykali o‘rnatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ulug‘bek nomidagi astronomiya institutiga buyuk olim nomi berilgan.

2020-yil iyul oyida Samarqand davlat universiteti rahbariyati Qozon federal universitetining rossiyalik olimlari bilan birgalikda Ulug‘bek madrasasi ochilganining 600 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkazdi.

2023-yilda Tuluza shahrida joylashgan Fransiya Fuqarolik milliy aviatsiyasi instituti hududida buyuk astronom olim, matematik va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek haykali ochildi.

2024-yilda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligi keng nishonlanayapti.

Xulosa: Ko‘rinib turibdiki, Mirzo Ulug‘bek davlat boshqaruvidan tashqari, ilm-fan, madaniyat, me‘morchilikka alohida e‘tibor bergan. Bu sohalar rivojiga katta hissa qo‘shgan. Shu sababli Mirzo Ulug‘bek nomi jahonda ham tan olingan. Uning nomi oydagi kraterlardan biriga ham qo‘yilgan. U haqida asarlar, kino, pyesa, momografiya, dissertatsiyalar yaratilgan. Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” pyesasi, Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romani tom ma‘noda Mirzo Ulug‘bek hayoti va jasoratiga bag‘ishlangan. Uning nomini abadiylashtirish uchun ko‘plab ishlar olib borilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Mirzo Ulug‘bek va ilmiy merosi” M.Mamadazimov
2. <https://www.ziyouz.com>
3. Ziji jadidi ko‘ragoniy”
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romani
6. “The National Herald Tribune” gazetasi “Ulug‘bek – yulduzlar hukmdori, Samarqand farzandi” sarlavhali maqola
7. Alisher Navoiy “Majolis un – nafois” asari
8. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Ulug‘bek nomidagi astronomiya instituti rasmiy sayti
9. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.